

TRANSFORMATSION BOLALAR KURTKALARI: OTA-ONALAR FIKRLARI ASOSIDA BOZOR TALABINI TAHLIL QILISH

t.f.f.d (PhD) Oripov Jasurbek Ikromjon o‘g‘li
FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
Mamasidiqova Mohigul Yaxyoxon qizi
Talaba, FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
joripov19@gmail.com +998 94 309 39 33
mamasidiqovamohigul2000@gmail.com +998 99 393 29 03

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada bolalar uchun ishlab chiqilayotgan transformatsion kurtkalar dizayni va funktsionalligi ota-onalar nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. So‘rovnoma asosida to‘plangan ma‘lumotlar asosida transformatsion kurtkalarga bo‘lgan ehtiyoj, xarid omillari, afzal ko‘riladigan xususiyatlar va ularning bozordagi istiqbollari aniqlanadi. Tahlillar dizaynchilarga yangi innovatsion mahsulotlar yaratishda muhim yo‘nalishlarni ko‘rsatib beradi.

Аннотация

В данной научной статье рассматриваются мнения родителей по поводу дизайна и функциональности трансформационных курток для детей. На основе опроса определяются потребности, мотивации при покупке, предпочтительные характеристики и рыночные перспективы таких изделий. Результаты анализа помогут дизайнерам в разработке инновационных продуктов.

Annotation

This scientific article analyzes parents' perspectives on the design and functionality of transformational jackets for children. Based on survey data, the study identifies the needs, purchasing factors, preferred features, and market prospects for such garments. The analysis provides essential insights for designers to develop innovative products.



Kalit soʻzlar : bolalar kiyimi, transformatsion kurtka, dizayn, ergonomika, ota-onalar fikri, bozor tahlili

Ключевые слова: детская одежда, трансформационная куртка, дизайн, эргономика, мнение родителей, рыночный анализ


Keywords children’s wear, transformational jacket, design, ergonomics, parental opinion, market analysis

Zamonaviy bolalar kiyim sanoati innovatsion dizayn va ergonomik yondashuvlar asosida shakllanmoqda. Ayniqsa, transformatsion (koʻp funktsiyali) kurtkalar nafaqat tashqi koʻrinishi, balki amaliyligi bilan ham eʼtiborni tortmoqda. Transformatsion kurtkalar bolalar uchun oʻyinchoqqa aylanishi, ortiqcha joy egallamasligi, qulay saqlanishi bilan ota-onalarga ham maʼqul kelmoqda. Maqolaning asosiy maqsadi – ushbu mahsulot turining bozordagi ehtiyoj darajasini va ota-onalar fikrini ilmiy asosda oʻrganishdir.

Tadqiqot doirasida 2025-yil fevral oyida 100 nafar ota-onalar oʻrtasida onlayn va yuzma-yuz soʻrovnoma oʻtkazildi. Savollar bolalarning yoshi, kurtka xaridida ustuvor omillar, transformatsion imkoniyatlarga munosabat va xarid joylari boʻyicha shakllantirildi. Natijalar Excel va diagrammatik vositalar yordamida tahlil qilindi. Respondentlarning yoshi, farzandlari soni, va harid odatlari hisobga olindi.


1. Sizning farzandingiz necha yoshda?

Sizning farzandingiz necha yoshda?




2. Bolangiz uchun kurtka sotib olishda eng muhim omil qaysi?

Bolangiz uchun kurtka sotib olishda eng muhim omil qaysi?




3. Kurtkani transformatsiya qilish imkoniyati siz uchun qanchalik muhim?

Kurtkani transformatsiya qilish imkoniyati siz uchun qanchalik muhim?



4. Kurtkaning yumshoq o'yinchoqqa aylanishining foydalari

Kurtkaning yumshoq o'yinchoqqa aylanishining foydalari



Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, 3–5 yoshli bolalar segmenti transformatsion kurtkalarga eng katta ehtiyojga ega. Material sifati va issiqlik saqlash darajasi ota-onalar tomonidan asosiy xarid mezonlari sifatida qayd etildi. Transformatsion xususiyat esa amaliylik nuqtai nazaridan ijobiy baholandi. Kurtkaning o‘yinchoqqa aylanishi bolaga qiziqarlilik berishi bilan birga, ota-onaning ikki mahsulotni bir xaridda qo‘lga kiritishiga xizmat qiladi. Bozor tahlili shuni ko‘rsatadiki, bunday mahsulotlar iste‘molchilar tomonidan talab qilinadi, ayniqsa agar u marketing va dizayn jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirilsa.

Transformatsion bolalar kurtkalariga bo‘lgan talab mavjud bo‘lib, ayniqsa 3–5 yoshli bolalarning ota-onalari orasida bu mahsulot turiga nisbatan ijobiy munosabat mavjud. Sifatli material, yuqori funktsionallik, o‘yinchoqqa aylanish imkoniyati va estetik ko‘rinish – bularning barchasi kelajakdagi ishlab chiqaruvchilar uchun muhim jihatlardir. Mahsulotni muvaffaqiyatli joriy qilish uchun ota-onalar fikriga asoslangan dizayn yondashuvi zarurdir.

Ilova: So‘rovnoma shakli va javob variantlari

Quyida transformatsion bolalar kurtkalari mavzusida olib borilgan so‘rovnoma savollari va ularga berilgan javob variantlari keltirilgan. Ushbu savollar orqali ota-onalarning fikr va istaklari o‘rganilib, maqolada tahlil qilingan diagrammalar shakllantirildi.

1. Sizning farzandingiz necha yoshda?
 - a) 3-4 yosh
 - b) 5-6 yosh
 - c) 7-8 yosh
2. Bolangiz uchun kurtka sotib olishda eng muhim omil qaysi?
 - a) Sifat va chidamlilik
 - b) Qulaylik va issiqlik
 - c) Zamonaviy dizayn
3. Kurtkaning transformatsiya qilish imkoniyati siz uchun qanchalik muhim?
 - a) Juda muhim
 - b) O‘rtacha muhim
 - c) Umuman muhim emas
4. Sizningcha, kurtkaning yumshoq o‘yinchoqqa aylanishi qanday foyda keltiradi?
 - a) Bolalar uchun qo‘shimcha qiziqish va o‘yin imkoniyati
 - b) Saqlashni qulaylashtiradi



- c) Bu funksiyani muhim deb hisoblamayman
5. Bolalar uchun kurtka materialini tanlashda qanday omilni afzal ko‘rasiz?
 - a) Suv o‘tkazmaydigan material
 - b) Tabiiy va ekologik toza material
 - c) Issiqlikni yaxshi ushlab turuvchi material
6. Kurtkaning qaysi ranglari sizning farzandingizga ko‘proq mos keladi?
 - a) Yorqin ranglar (qizil, sariq, yashil)
 - b) Pastel ranglar (ko‘k, och pushti, oq)
 - c) Neytral ranglar (kulrang, qora, jigarrang)
7. Siz kurtkaning narxini qanday baholaysiz?
 - a) 500 000 so‘mgacha
 - b) 500 000 – 1 000 000 so‘m
 - c) 1 000 000 so‘mdan yuqori
8. Transformatsion kurtkada qaysi qo‘shimcha funksiyalar bo‘lishini istaysiz?
 - a) Qo‘shimcha cho‘ntaklar
 - b) Shamollatish tizimi
 - c) Hech qanday qo‘shimcha funksiyalar kerak emas
9. Sizningcha, bunday innovatsion kurtkalar bozorda talabga ega bo‘ladimi?
 - a) Ha, talab yuqori bo‘ladi
 - b) O‘rtacha talab bo‘ladi
 - c) Yo‘q, talab bo‘lmaydi
10. Bunday kurtkani qayerdan sotib olishni afzal ko‘rasiz?
 - a) Do‘kondan
 - b) Internet orqali
 - c) Buyurtma asosida

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedova G. “Bolalar kiyimlarini loyihalashda ergonomik yondashuvlar.” Toshkent yengil sanoat ilmiy jurnali, 2023.
2. To‘xtayev A. “Transformatsion kiyim dizayni.” Moda va Dizayn, 2022.
3. Shodmonova N. “Ota-onalarning kiyim tanlashdagi psixologik jihatlari.” Pedagogika va psixologiya, 2024.
4. ISO 8124 – Safety of toys: General requirements. International Organization for Standardization